

Ma'rifatparvar Ahmad Donish Buxoriyning Hayot Yo'li Va Faoliyati

Abbosjon Akmalovich Jumayev¹

Annotatsiya: Ma'rifatparvar Ahmad Donishning to'liq ismi (1827-1897) Ahmad ibn Mir Nosir ibn Yusuf al-Xanafi as-Siddiqiy al-Buxoriy bo'lib, Donish uning adabiy taxallusidir. Buxoro amirligida XIX asrning o'rtalarida yashab ijod etgan, ilg'or fikrlari bilan nom qozongan shoir, mutafakkir, yozuvchi, rassom, xattot, olim va ma'rifatparvardir.

Ahmad Donish 1827 (xijriy 1242) yilda Buxoro shahrining Ko'chai Sangin guzarida mudarris(ziyoli) oilasida dunyoga kelgan. Uning bobosi (ota tomonidan) dehqon bo'lib, qishloqdagi diniy eski maktabda, undan so'ng Buxoro madrasalarining birida o'qib, so'ng shu shahardagi mavzelarning birida imomlik qilgan²

Ahmad Donishga onasi Sakina Abdurahmon qizi boshlang'ich ta'limni bergan, otasi Nosir ibn Yusuf arab tilini o'rgatgan. Ahmadning onasi o'z uyida qishloq qizlariga otinoyilik qilib saboq bergan, adabiyotdan yaxshigina xabardor bo'lib, she'rlar ham mashq qilgan. Tabiiyki, Ahmad ham dastlabki savodini shu maktabda chiqaradi. Bu haqda A.Donish: maktabga borishimdan oldin oilamizdagi boshqa bolalar qatori onamdan alifboni o'rgandim, o'qish va yozishni hatto qo'shiqlarni tartibga solishni o'rgandim. Loyshuvoq devorga qalam bilan geometriya shakllarini solganimni aniq, eslayman deb qayd etib o'tgan³.

Sadriddin Ayniy o'z "Esdaliklar" ida Ahmad Donishni: "1827-yilda Buxoro shahrida Mulla Mir Nosir xonadonida tavallud topdi" deb ta'kidlaydi. Ahmad Donishning otasi Mulla Mir Nosir Buxorodagi kichik madrasalardan birida dars berardi. Ahmad Donish va u bilan bog'liq ma'lumotlar Sadriddin Ayniy "Esdaliklar" kitobining "Ajoyib odam" qismi alohida o'rin egallagan⁴

Kelajakda o'g'lini yetuk qori bo'lishini orzu qilgan otasi o'z o'g'lini Qur'oni Karimning bilimdoni va hofizi bo'lishini istab uni o'z guzaridagi musulmon maktabiga o'qishga bergan. Maktab domlasi Ahmad Mahdumning otasiga o'g'lining tili chuchukligini, gapirganda va o'qiganda tili tutilib qolishini, mabodo u Qur'onni yodlaganda ham yaxshi qori bo'lmasligini, shuning uchun bu fikrdan voz kechish ma'qulligini aytgan. Nosir ibn Yusuf nochor bu taklifga rozi bo'lgan. Ammo Qur'oni Karimni yodlashga qiynalgan bo'lsa-da, uch yilda u bu muqaddas kitobni yod bilgan.

Bu haqda keyinchalik Ahmad Donish o'zining —Risola dar nazmi tamaddun va taovun asarida: "Qur'oni Karimni yodlashdan men uncha xursand emas edim: bir qismini qiynalib yodlagach, ikkinchi qismiga o'tar edim. Ba'zan erinchoqligim sababli bir qismini bir varaq qog'ozga yozib olib, domladan yashirincha o'shandan o'qib berardim. Nima bo'lganda ham, men ko'nglimdagi o'jarlikni sug'urib tashlay olmadim va nihoyat katta qiynchilik bilan Qur'oni Karimni uch yilda o'zlashtirib oldim. Albatta, Qur'oni Karimdek muqaddas kitobni uch yilda yodlab olish uchun ham katta iqtidor egasi bo'lish kerak. Bolaligidayoq 10 yoshida Qur'oni Karimni yod olgan. She'riyat va tasviriy san'atga ixlos qo'ygan⁵. Arab tilini mukammal o'rgangan."Donish" ("bilim" ma'nosini beradi) taxallusi bilan she'rlar yozgan.

¹ Zarmed Universiteti Tarix kafedrasida o'qituvchisi

²Раҳмонов.Т.Э,Орзиев.М.З. Икки тарихий сиймо:Аҳмад Дониш ва Садриддин Айний.Бухоро.Дурдона.2015. Б-8.

³ Тошқулов Д. Дониш. М., 1990. –Б.70.

⁴Воҳидов Р., Маҳмудов М. Устод С.Айний сабоқлари. - Тошкент: Фан. 2004.–Б.297.

⁵ Мўминов И. Ўзбекистон ижтимоий-фалсафий тафаккури тарихидан, Тошкент., 1964. Б-72.



Ahmad Donish ilk ta'limni onasidan o'rgangach, Yosh Ahmad eski maktabni uch yilda tugatib, o'z muallimini fotihasini olgach, 1841-yilda oliy maktab, madrasaga o'qishga kiradi. Madrasada Ahmad Donish islomiy fanlar bilan birgalikda riyoziyot, falakiyot, musiqa, falsafa va tarix fanlarini ham chuqur o'zlashtiradi. Mazkur davrda madrasa ta'limi 16-19 yil davom etgan. Shundan 8 yili arab grammatikasini o'rganish, qolgan 11 yil esa islom dini ruxsati bilan tabiiy fanlar, ritorika, mantiq o'qitilardi. O'qib yurgan chog'larida husnihat, lavha, jadvallar chizish bilan shug'ullangan va qisqa muddatda yaxshi hattot, mohir lavhakash bo'lib yetishgan. Ahmad Donish madrasalardagi rasmiy darslarga qanoat qilmay, astronomiya, handasa va hisobni shaxsiy tashabbusi bilan mutaxassislarini topib o'qib o'rgangan. So'ngra Mir Arab madrasasida tahsil oldi.

Ahmad Donishning madrasa yillari sermahsul bo'ldi, bilimga chanqoq talaba madrasada diniy - islomiy fanlar bilan birga matematika, geometriya, astronomiya, musiqa, falsafa va tarix ilmlarini mustaqil o'rgandi. Madrasa mudarrislarining unga berayotgan ta'limi uni qoniqtirmas, u Buxoro shahrida yashasa ham ota-onasi bilan o'z hovlisida turmas, otasi ijaraga olib bergan hujrada tunu-kun kitoblar ustida ishlar edi. Madrasa ta'limi xususida Ahmad Donish shunday yozadi: "Buxoro madrasalarida maktab talabasi uchun kerakli fanlarni o'qitish yomon darajada bo'lgan. Dars berish usullari ham eskirgan edi"⁶.

Ahmad Donish madrasada olgan bilimlar bilan kifoyalanmay, riyoziyot, falakiyot, adabiyot, tibbiyot, musiqa, me'morchilik, xattotlik, naqqoshlik, tarix va falsafa bilan shug'ullandi. Ayniqsa, sharq shoirlari va mutafakkirlarining asarlarini ko'p o'qib-o'rgandi. Ibn Sino, Umar Hayyom, Navoiy, Fuzuliy, Bedil asarlari bilan yaqindan tanishib, ularning fikrlaridan o'z asarlarida keng foydalanishga intildi. Shu bilan birga tabiiy fanlarni, ayniqsa, astronomiya ilmini (ustoz Mirzo Abdulfattohxon munajjim bo'lgan) o'rganishga katta e'tibor berdi.

Madrasada bo'lajak alloma arab tili, uning morfologiya va sintaksisi, mantiq, ritorika, tabiiy fanlar, poklanish qoidalari Makka– yu – Munavvaraga haj safari qoidalari, mol olib sotish qoidalari, qul sotib olish, qulga egalik qilish va uni sotib yuborish yoki ozod qilish qoidalari, oila va nikoh, taloq, bir so'z bilan atganda shariat qoidalarini katta qiziqish bilan chuqur o'rgandi. Faqat ushbu qoidalarni quruq o'rganish emas, davlat va ulamolik vazifalarini bajarayotganda bu qoidalarni qanday qilib hayotga tadbiq etish masalalari bilan shug'ullandi. U madrasa ta'limini olar ekan, ota – onasiga og'irligi tushmasin uchun, ilm ahli sevadigan kitoblarni ko'chirish, uning sahifalari va hoshiyalarini nihoyatda chiroyli qilib bezash, xususan she'riy asarlarni chiroyli suratlar bilan jilo berish kabi ishlarda nom chiqargan edi.

Hattotlik san'ati yuksak bo'lgan Ahmad "Layli va Majnun", "Yusuf va Zulayho" kabi el sevadigan asarlarni, Sharq mutafakkirlari, xususan, Buxoroda sevimli bo'lgan Mirzo Abdulqodir Bedil asarlarini ko'chirib, ularni sotishdan bilan keladigan daromad hisobiga yashash yo'lini tanladi. Bu haqda uning o'zi: "Men darsdan keyin ko'chirib yozish bilan mashg'ul bo'lardim, bir oyda Bedilning yigirma to'rt, o'ttiz qismdan iborat kitobini ko'chirardim, buning uchun yigirmadan o'ttiz tangagacha to'lar edilar. Men bu pulning ko'prog'ini tejab, zahiraga qolganini o'zimga ishlatar edim" – degan fikrlarni yozib qoldirgan.

Aqlining o'tkirligi, handasa va riyoziyot fanlarining bilimdoni bo'lganligi sababli Ahmad Donish o'z zamondoshlari orasida Ahmad Kalla, Muhandis, Maxdum, O'roq (amir saroyining nufuzli a'yonlaridan bo'lgan) kabi unvon va laqablar bilan ham mashhur bo'lgan.

Ahmad ibn Mir Nosir ibn Yusuf Al Xanifiy al Siddiqiy al Buxoriy – o'z zamonasining yetuk mutaffakir ziyolilaridan biri bo'lgan. Noyob zehnga egasi bo'lgan Ahmad xalq orasida o'z davrida "Ahmad kalla", "Donish", "Mahdum" nomlari bilan mashhur bo'lgan. O'z davrida yetuk shoir, yozuvchi, tarixchi, faylasuf sifatida tanilgan Ahmad Donish tabiiy va aniq fanlar bo'yicha ham chuqur bilimlarga ega bo'lganligi bois zamondoshlari tomonidan unga "muhandis" nomi ham berilgan⁷.

⁶Муиний Р. Аҳмад Дониш ҳаёти ҳақида. Бухоро. 2007. –Б.13

⁷ Кариева Н. Аҳмад Дониш асарларида табиий фанларга оид қарашлар Шарқ машғали. № 3, 2019. Б-113.



Allomaning arbob sifatida mashhur bo'lishiga go'zal husnixati sabab bo'ldi. Talabaligida mohir hattot sifatida tilga tushgan Ahmadni saroy xizmatiga ishga olishadi. Tez orada iqtidorli yigit amir saroyining bosh mirzasiga aylanadi. Bu esa unga amir, vazir va oliy martabali boshqa amaldorlar bilan tanishish, davlat boshqaruvi jarayonlarini bevosita kuzatish imkonini berardi.

Qomusiy bilimlar sohibi bo'lish ishtiyoqi kuchli bo'lgan Donish o'tmish va o'z davrining shoirlari, faylasuflari va umuman sharqning buyuk mutafakkirlarining asarlarini chuqur o'rgandi. Keyinchalik Ahmad Donishning o'zi ham shu madrasalardan birida hujra olib o'quvchilarga ta'lim berardi. Madrasa hujralarida ilm-fan bilan shug'ullanib shu qadar kuchli bilimga ega edilarki, hatto hozirgi texnika namunalari bo'lmagan davridayoq tabiat hodisalarini o'rganib, osmonda kuzatilishi mumkin bo'lgan hodisalarni oldindan aytib berardilar. Bu so'zlarning isbotini Sadridin Ayniy "Esdaliklar" ida ko'rishimiz mumkin: "Bu kecha falon soat, falon daqiqada oy tutiladi, falon daqiqa davom qiladi, so'ngra ochila boshlaydi. Falon soat, falon daqiqadan keyin butunlay ochiladi. Kimda kim tabiatning bu hodisasini o'z ko'zi bilan ko'rmoqchi bo'lsa, ma'lum soatda madrasa tomiga chiqsa, buni o'z ko'zi bilan ko'radi – deb o'tib ketdi"⁸.

Haqiqatdan ham Ahmad Donishning buyuk olimligi, yulduzlar va umuman osmoniy jismlar harakatini kuzatish asosida aniq matematik hisob-kitoblar bilan o'ying tutilishini oldin bashoratnamo aytib berishi, shak-shubhasiz bu XIX asr Buxorosi uchun juda katta voqea edi.

Ahmad Donish Buxoroda ilmni hamda ma'rifatni rivojlantirishi uchun fidokorlik qilar edi. Bu esa uning dunyoqarashi o'sib borganidan dalolat. U uyida haftaning chorshanba, payshanba, juma kunlari shogirdlari va yaqinlarini to'plab suhbatlar o'tkazgan. She'rlar o'qishni tashkil qilgan. Davra suhbatlarida davlat ta'lim tizimini, boshqaruv sohasini o'zgartirish kabi mavzularda munozaralar qilingan.

Ahmad Donish bu suhbatlarda "Olimlar Qur'oni Karim suralarini yoddan bilib, o'zlarini fanning tepasida o'tirganday his qilishadi. Arab alifbosi bu fanning tepasi emas" - deb yozadi. Uning bu kabi fikrlarini chuqur hurmat qilgan va davom ettirgan bir qancha shogirdlari bo'lgan. Ulardan eng kattasi Sadridin Ayniy edi.

Shunday bo'lsa ham Ayniy Donishni ko'rish va kuzatishdan, ayniqsa, Donishning Homidbek, Fayzibek, Qori Ne'mat va boshqa doimiy suhbatdoshlarining jonli hikoyalaridan olgan jonli taassurotlari, xususan ustozlari asarlarini o'qish natijasida ko'p narsa o'rgangan va ma'naviy oziqlangan⁹.

O'z zamonasining yirik ma'rifatparvarlari bo'lgan bu shaxs zamonasining chuqur ilmi me'mori-arkitektori ham bo'lgan. Ahmad Donishni hali madrasada tahsil ko'rayotgan davrlaridayoq otasi Mulla Nosir buxorolik taniqli muhandis Bobome'mor huzuriga shogirdlikka olib boradi. Ahmad Donishning xotirlashicha, Bobome'mor vafot etgach, amir Nasrulloxon uni saroy bosh me'mori vazifasiga tayinlab, Maxdum unvonini beradi va 1000 dirhamlik oylik maosh belgilaydi. Shundan keyin Mirzo Ahmad Donish saroy qurilishida ishtirok etgan barcha muhandis va ustalar faoliyatiga rahbarlik qiladi. So'ngra amir elchilari tarkibida Sankt-Peterburgga safarga o'tlanadi.

Ahmad Donish Buxoroda birinchilardan bo'lib rangli suvoqdan foydalanishni joriy qiladi. Bunda oppoq ganch ustiga giyohlardan tayyorlangan bo'yoqlar bilan ikkinchi qatlam suvoqni amalga oshirib, ko'p mehnatni talab qilmaydigan rang-baranglikka erishilar edi. Xususan, shu usulda oppoq ganch devor ustiga qora, qizil, ko'k yoxud yashil rangdagi yulduzlar tasviri solinar va buning natijasida ajoyib manzaralar vujudga kelar edi.

Keyinchalik Ahmad Donish voyaga yetgan o'g'li Karomatjonni ham ganchkorlik va naqqoshlik san'atiga o'rgatadi. Oradan yillar o'tib, Karomatjon mahoratda tengi yo'q me'mor va naqqosh darajasiga yetib, Sitorai Mohi Xossa saroyining saqlanib qolmagan inshootlariga sayqal bergan¹⁰.

Uni malakali husnixat sohibi bo'lgani uchun, mang'it amirlari saroyiga xizmatga oladilar. Donish tez orada amir saroyining bosh mirzasiga aylanadi. Uning mang'it amirlari saroyida katta lavozimda

⁸ Садриддин Айний. Танланган асарлар. Т.5.—Тошкент.:Бадий адабиёт, 1965. — Б.205.

⁹ Рахимов Н. Садриддин Айний ижодига устозлар таъсири. Тошкент.: Ўзбекистон, 1972. —Б.4.

¹⁰ Жўраев Х. Беназир аллома, ажойиб хаттот ва мураббий.// Бухоро мавжлари. 2013.№2. —Б.49.



ishlashi, Buxoro amiri bilan, vazir va boshqa oliy martabali amaldorlar bilan tanishish, hukumdor toifasining mavqesi, o'zni, turmush tarzini bilish imkonini beradi. Bu haqda uning o'zi: "Harbiy toifa bilan mening tanishish va muloqotda bo'lishim, husnixat egasi bo'lishim zaminida bo'ldi"¹¹ – tarzidagi fikrlari orqali ifodalangan edi.

Ahmad Donishning malkali husnixat egasi bo'lishi, geometriya, tarix, falsafa kabi fanlarni yaxshi bilishi, saroy xizmatkorlari orasida shuhratini yanada oshirdi. Shaxsan Buxoro amirining o'zi ko'p masalalarda u bilan maslahatlashib ish tutgan. Ahmad Donish ma'lum vaqtlarda amir saroyida bosh me'mor (arxitektor) vazifasida ham ishlaganligi, uning arxitektura sohasida ham o'z davri uchun a'lo darajadagi bilimga ega bo'lganligidan dalolat beradi. Bu haqda uning o'zi: "me'morlar va tasvirchilar mening ko'rsatmamdanda so'ng ishga kirishar edilar" – kabi jummalarni keltirib o'tadi.

Amir saroyida ishlagan vaqtlarda Donish ilmiy bilimlarni tirishib o'rgandi, bu tinimsiz mehnat va ilm bilan shug'ullanish uni o'z davrining mashhur olimi bo'lishiga olib keldi. Ahmad Donish siyosiy va falsafiy qarashlarining shakllanishida Ibn Sino, Alisher Navoiy, Mirzo Ahmad Donish Amir Muzaffar saroyida davlat arbobi darajasiga ko'tarilgach, tez-tez Shofirkon, Vobkent, G'ijduvonga safarlar qilgan. U bu safarlar chog'ida yurtning suvsizlikdan qiynalayotganini ko'rib, Buxoro ekinzorlarining sathining Amudaryo, Sirdaryo, Zarafshon daryolarining suv oqimi bo'yicha tahliliy o'lehovlarni amalga oshirgan va Amudaryo suvini kanal qurish yo'li bilan Karmana va Kelib orqali Buxoro ekinzorlariga keltirish loyihasini ishlab chiqqan. Bu loyiha Amir Muzaffar tomonidan rad etilgan.¹² Bu loyiha Donishning o'sha davrdayoq uzoqni ko'ra olgani va hozirgi Amu-Buxoro kanali loyihasining ilk asoschisi ekanligini ko'rsatadi.

Ahmad Donish 1857, 1869, 1874-yillar mobaynida Buxoro amiri elchilarining mirzasi sifatida Rossiyaning S.Peterburg shahriga borgan. Amir bilan munosabatlari yomonlashgan Ahmad Donish saroydagi xizmatdan ketadi, bir necha vaqt ilmiy ish bilan mashg'ul bo'ldi.

Buxoro amiri Ahmad Donishdek buyuk insonni shaharda ishsiz qoldirishning o'zi uning obrusiga putur etkazishni yaxshi tushunar, ikkinchidan juda katta islohotchilik g'oyalarga ega bo'lgan odamning Buxoroda yashashidan amirning o'zi qo'rqar va uning boshqalarga ta'sir qilishi mumkinligini yaxshi anglar edi. Ahmad Donish amirning qo'ygan har bir qing'ir qadamini fosh qilishi mumkinligini hisobga olib uni 1882-yili G'uzor bekligiga qozi qilib yubordi. Bu bilan amir, avvalo, Ahmad Donishning buyuk xizmatlarini hisobga olib go'yoki uni rag'batlantirgan bo'ldi hamda o'zi uchun xavfli bo'lgan hech kimdan qo'rqmay mamlakat ijtimoiy - siyosiy, iqtisodiy hayotini tahlil qilib uni ilg'or fikrli kishilarga yetkazadigan kishini poytaxtdan uzoqlashtirishdek maqsadiga erishgan edi.

1885-yildan u Narpayning qozisi bo'lib ishladi. Jamiyatda ijtimoiy adolat o'rnatishning tolmas kurashchisi bo'lgan Ahmad Donish 1887-yilda bu vazifadan ham bo'shatilib, Jafar xo'ja kutubxonasining mudiri qilib tayinlandi va 1889-yilning kuziga kelib u yerdan ham ketdi. Ahmad Donish qayerda ishlamasin qaysi lavozimda bo'lmasin, ilm-fan ahliga homiylik qildi, ma'rifatparvar insonlar bilan yaqinlashdi, eng oddiy kambag'al insonlarni himoya qildi.

Jumladan, "Bu odam novcha bo'yli bo'lib, oddiy odamlar kiyganda yerga tegadigan podshohlik banoras choponi uning tizzasidan kelardi. U odamning boshi haddan ortiq katta bo'lganidan unga "Kalla" degan laqab bergan ekanlar. Odamlar uni "Ahmad Mahdum", "Ahmad Mahdumi Donish", "Ahmad Mahdumi Muhandis", "Ahmad Mahdumi munajjim" yoki butunlay qisqartirib "Ahmad Kalla" deb yuritar ekanlar. Ammo o'zini hazil bilan "Ahmadi Porina" (o'tgan yilgi Ahmad) deb va "Odamlar meni ne desalar desinlar, men hamon Ahmadi Porinaki budam, hastam" (Men o'sha bulturgi Ahmadman, hozir ham o'shaman) der ekan".

Mazkur fikrlarni davom ettirib, "Bu kishining qo'lida ruscha xassa (palka) bor edi. Palkalar odatda o'rta bo'yli odamlarni nazarga olib yasalganidan, u palka novcha odamga birmuncha qisqalik qilar va u yo'l yurganda qaddi palka tutgan quli tomonga qarab bir oz egilardi. Bu odam sallona-sallona viqor

¹¹ Ахмад Дониш Избранные произведения. Душанбе. 1976. – С. 108.

¹² Наимов И. Аму-Бухоро каналнинг ilk loyihasi. //Бухорои шариф 2012. №6. –Б.8.



bilan qadam bosib madrasa darvozasidan kirganda, miyonsaroyda o'tirgan madrasa kattalari joylaridan turib, qo'l qovushtirib ta'zim bilan u odamga salom berardilar – deb ham ta'kidlab o'tadi¹³.

Donishning qomusiy bilimlar sohibi ekanligi uning saroydagi shuhratini yanada oshiradi. Hatto geometriyani chuqur bilgani bois ma'lum vaqt saroyda bosh me'morlik vazifasini ham bajaradi. Donish yuqori malakali xattot, me'mor ham edi. Shuning uchun XIX asrning 50-yillarida Buxoro amiri Amir Nasrulloh (1827—1860) saroyida xattot va me'mor lavozimiga ishga qabul qilinadi va xizmat qildi. keyinchalik bosh me'mor (amirlikning bosh arxitektori) darajasiga ko'tarildi. XIX asrning 70-yillarda u saroy xizmatidan ketib, madrasada mudarrislik qila boshladi.

Saroyda yangi kitoblarning xoshiyalarini bezash bilan shug'ullangan Ahmad ustozining vafotidan so'ng, uning o'rniga saroyning bosh rassomi etib tayinlanadi, biroq 1869-1870 yillarda Ahmad o'z xoxishiga ko'ra o'z lavozimidan bo'shaydi. O'z xotiralarida bu voqeaga nisbatan: "...hukmdorlarga hizmat qilish eng besamara ishlardan biri..." deya izoh beradi. Ahmad Donish tojik tilida ijod qilgan.¹⁴

Albatta, chuqur bilim va tafakkurga ega, qolaversa, dunyo ko'rgan, oqqoshsho saroyi a'yonlari orasida ham munosib obro'-e'tiborga ega shaxsning davlat boshqaruvida ishtirok etishi davlat ijtimoiy-iqtisodiy rivojida muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois ham Amir Muzaffarxon Donish amir o'limidan so'ng Buxoroga qaytadi va 1897 yili vafot etadi. Uning jasadi Buxoro shahridagi Xo'ja Ishoq qabristoniga dafn etilgan. Ahmad o'z xonadonida tez-tez mushoiralar tashkil qilar, yaqin do'stlari bilan birga u yangi tadqiqotlar, asarlar va risolalari muhokama qilar edi¹⁵.

Ahmad Donishning o'z asarlarida ilgari surgan muhim ijtimoiy-siyosiy qarashlari uni o'z zamonasining yetakchi ma'rifatparvar va modernistlardan biri sifatida gavdalantiradi. Ahmad Donish ijtimoiy taraqqiyotga g'ov bo'lib qolgan feodal ijtimoiy-siyosiy tuzum, tartib va munosabatlarni tanqid ostiga oladi. Buxoro amirligini Ovro'po mamlakatlari, xususan, Rusiya bilan takqoslab, Donish o'z vatanini iqtisodiy va madaniy jihatdan orqada qolganini ko'rsatib beradi va bu qoloqlikdan chiqish uchun ijtimoiy-siyosiy tuzumda islohotlar qilish zarurligini uqtiradi.

Donishning fikriga ko'ra, «davlat bir guruh kishilar ehtiyojlarini qondirish uchun emas, xalq manfaatlarini uchun, mamlakatni obod qilish uchun xizmat qilmog'i zarur. Biz dunyoni gullab-yashnatish uchun, dengizlar kezib o'rganish uchun, yerosti boyliklarini topish uchun, uning hamma qit'alari va aholisini bilish uchun tug'ilganmiz», deb yozgan edi Donish. Buning uchun hukmdor bilimdon, ma'rifatli, odil va o'z fuqarolari manfaatlarini uchun xizmat qilmog'i shart. U qanday masalani hal qilmasin, eng avval o'zini fuqaro o'rnida, ularni esa o'z o'rnida tasavvur qilmog'i lozim. Bu adolatni ta'minlashga imkon yaratadi. «Mamlakatni idora qilishda, — deydi Donish, — hukmdor muhim davlat muammolarini o'z atrofidagi maslahatchilar bilan birgalikda hal qilishi kerak. Maslahatchilar ham donishmand va adolatli kishilar bo'lishi kerak va ularning fikri bilan hisoblashishi shart, chunki ko'pchilikning aqli bir kishining aqlidan ortiqroqdir».

Ahmad Donish o'z vatanini qoloqlikdan chiqarish yo'llarini tinmay izladi. «Kishi o'z vatanini himoya qilsagina, o'z xalqi bilan birga bo'lsagina, u har doim barhayotdir», deydi Donish. U Sharq mutafakkirlari ta'limotini o'rganish bilan bir qatorda, G'arbda tarqalgan ijtimoiy-siyosiy ta'limotlar bilan ham qiziqadi. Garchi bu ta'limotlarni Donish qabul qilmagan bo'lsa-da, uning bularga nisbatan bo'lgan munosabati mutafakkirni keng ko'lamdagi tadqiqotchi va ijtimoiy-siyosiy orzulari kengroq ekanini ko'rish imkonini beradi.

Ahmad Donish XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Buxoroda vujudga kelgan diniy-ma'rifiy islohotlarning g'oyaviy rahnamosi edi. Uning mamlakatni obodonlashtirish, xalq farovonligini ta'minlash, Buxoroni obod o'lkaga aylantirish borasida bildirilgan fikrlari o'z davri uchun muhim ahamiyatga molik edi. U Buxoro jamiyati siyosiy, ijtimoiy va madaniy jihatdan inqirozga yuz burgan bir pallada o'z o'tmishdoshlari hamda zamondosh ma'rifatparvarlarning fikrlarini yangicha mazmun

¹³ Садриддин Айний. Танланган асарлар. Т.5. –Тошкент.:Бадий адабиёт, 1965. – Б.204

¹⁴ Мўминов И., Ўзбекистон ижтимоий-фалсафий тафаккури тарихидан, Тошкент., 1964. Б-120.

¹⁵ Кариева Н. Аҳмад Дониш асарларида табиий фанларга оид қарашлар Шарқ машғали. № 3, 2019. Б-113.б.



bilan boyitgan holda hamyurtlariga yetkazib berdi. Buxoroliklarga jamiyat hayotiga tanqidiy ko‘z bilan qarash va uni ijobiy tomonga o‘zgartirishga harakat qilish lozimligini ko‘rsatdi hamda bu borada ularga o‘rnak bo‘ldi. Ahmad Donish 20 ga yaqin ilmiy-badiiy asarlar muallifi bo‘lib, ularda jamiyatni isloh qilish haqidagi fikrlarini ilgari surgan.

“Ahmad Donish, - deydi akademik Ibrohim Mo‘minov, - XIX asrning ikkinchi yarmi sharoitlarida Buxoro ijtimoiy ilg‘or, taraqqiyparvar oqimining asoschisi, ajoyib ma‘rifatparvar ham edi. U ma‘rifatparvar bo‘lganidan, feodal va amirlik tizimiga qarshi edi. Ahmad Donish Yevropa va rus madaniyatini Buxoroga yoyish yo‘lida xizmat qildi; xalq ommasining manfaatlari uchun o‘ziga xos yo‘l bilan kurashdi. U o‘zining o‘sha vaqt tarixiy sharoitida ilg‘or siyosiy qarashlarini nazariy falsafiy fikr qoidalar orqali asoslashga harakat qildi. U iste‘dodli olim, faylasuf, zo‘r mutafakkir, ajoyib bir siymo sifatida manzur bo‘ldi”.

Yurtdoshimiz, faylasuf-akademik I.M. Mo‘minov ta‘biri bilan aytganda: “Ahmad Donish o‘z davrining ilg‘or va har taraflama bilimli kishisi, o‘z elining sodiq farzandi, o‘z tarixiy sharoitining nodir vakili edi. Ahmad Donish umrining so‘nggi kunlarida betoblanib yotib qoladi va 1897 yilning mart oyida Buxoroda vafot etadi.

Xulosa: Ahmad Donish mang‘it amirlari saroyida katta mansablarda ishlaydi, saroyda berilgan nafaqa bilan rohat – farog‘atda yashashi mumkin edi. Xalq uchun, el – yurt uchun, vatan uchun o‘z halovatini buzdi. Undagi bu jur‘at va jasorat ibratdir. Ahmad Donish ona shahrini obod qilish uchun o‘zining butun vujudini baxsh etgan fidoiy inson, u insonparvar qomusiy olim, u jamiyat hayotining barcha tomonlarini chuqur o‘rgangan va tahlil qilgan. U xalqning ayanchli turmushini anglash yo‘llarini izlaydi. Buning uchun Buxoro amirlariga ochiqdan – ochiq tavsiyalar va maslahatlar beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Аҳмад Дониш. “Наводир ул – вақоє”. Сўзбоши ва изоҳлар муаллифи И. М. Мўминов.
2. Кариева Н. Аҳмад Дониш асарларида табиий фанларга оид қарашлар Шарқ машғали. № 3, 2019
3. Садриддин Айний. Танланган асарлар. Т.5. –Тошкент.:Бадий адабиёт, 1965
4. Наимов И. Аму-Бухоро каналининг илк лойиҳаси. //Бухоройи шариф 2012
5. Жўраев Ҳ. Беназир аллома, ажойиб хаттот ва мураббий.// Бухоро мавжлари. 2013
6. Раҳимов Н. Садриддин Айний ижодига устозлар таъсири. Тошкент.: Ўзбекистон, 1972.
7. Муиний Р. Аҳмад Дониш ҳаёти ҳақида. Бухоро. 2007.
8. Раҳмонов.Т.Э,Орзиев.М.З. Икки тарихий сиймо:Аҳмад Дониш ва Садриддин Айний.Бухоро,Дурдона.2015
9. ¹Воҳидов Р., Маҳмудов М. Устод С.Айний сабоқлари. - Тошкент: Фан. 2004
10. Jumayev, A. (2023). AHMAD DONISH «NAVODIR -UL-VAQOYE» ASARIDA BUXORO IJTIMOY-SIYOSIY HAYOTIGA MUNOSABATI. *Talqin Va Tadqiqotlar*, 1(34). извлечено от <http://talqinvatadqiqotlar.uz/index.php/tvt/article/view/1468>

